


“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston davlat
san’at va madaniyat instituti rektori
N.B.Sayfullayev
2025-yil “30” 06 2025



**Xalq ijodiyoti: ashula va raqs ta’lim yo‘nalishiga ikkinchi va undan
keyingi oliy ta’limga qabul qilish imtihoni
BAHOLASH MEZONI**

Talabgorning quyidagi amaliy ijrosi va nazariy bilimlari uchun umumiy maksimal 100 balgacha baholanadi. 67 va undan yuqori ball to‘plagan talabgor suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.

№	Amaliy ijro	Maksimal ball
1.	Tashqi ko‘rinish, odob, muomala madaniyati va sahnadagi uyg‘unligi (jo‘rnavez bilan)	8
2.	Ijro dasturining tanlanishi, ijro mahorati, ovozning tabiiyligi va texnik jihatdan shakllanganligi	20
3.	Ijro etilgan asarlar va ularning mualliflari, ashula va raqs ansamblari, ijrochilik maktablari va namoyandalari haqida bilimlari	12
4.	Yakka va ko‘p ovozli tovushlarni eshitish, ritmni his qilish qobiliyati	12
5.	An’anaviy qo‘shiqchilik san’ati, xalq qo‘shiqlari va bastakorlar asarlari bo‘yicha bilim va tasavvur	8
6.	O‘zbek raqs maktablari, bastakorlari va namoyandalari bo‘yicha bilimlari va ular harakatlaridan namunalar ijrosi	15
7.	Raqs ijro mahorati, erkin mavzuda ijodkorligi, musiqani va ritmni his qilish qobiliyati	20
8.	Raqs liboslari, sahna madaniyati, harakatlarning ifodaliligi	5
	Jami	100

Qo‘yilgan talablarga talabgorning javobini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1.	Sahnaviy tashqi ko‘rinish, odob, muomala madaniyati va sahna uyg‘unligi, liboslar va harakatlarning ifodaliligi (Tashqi ko‘rinish, liboslar, odob, sahna madaniyati talabga javob bersa - to‘liq 15 ball.	15

	Yetarlicha tayyor emas, lekin asosiy talablar bajarilgan bo'lsa - 8-10 ball. Juda sust bo'lsa - 5 ball va undan kam)	
2.	Ijro dasturining tanlanishi, ovoz va ijro texnikasi, musiqani va ritmni his qilish, yakka va ko'p ovozli tovushlarni ajratish, erkin ijodkorligi (Dastur to'g'ri tanlangan, ovoz tabiiy va texnik jihatdan yaxshi, musiqaga moslashgan, ritmni to'liq his qiladi, erkin mavzuda ham ijodkor bo'lsa - 30-35 ball. Kamchiliklar bo'lsa - 20-25 ball. Juda yetishmasa 5-15 ball atrofida)	35
3.	Ijro etilgan asarlar va mualliflari, ashula, raqs, an'anaviy maktablar, bastakorlar va ularning namoyandalari haqida bilim va tasavvur (Asarlar va ularning mualliflari, an'anaviy maktablar va namoyandalarini to'liq va ishonchli ayta olsa - 23-25 ball. Ba'zi xatolar bo'lsa - 15-20 ball. Juda sust tayyorgarlik - 10-15 ball)	25
4.	Raqs ijro mahorati, o'zbek raqs maktablari va ularning harakatlaridan namunalar, musiqiy ritmni his qilib ijro etishi (Raqs mahorati yuqori, o'zbek maktablari xos harakatlarni aniq va ifodali ijro etib, musiqaga uyg'unlashsa - 23-25 ball. Ortiqcha xatolar va noaniqliklar bo'lsa - 15-20 ball. Tayyor emas - 5-15 ball)	25

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



S.Turatov